

TURKIY XALQLARNING XALQ OG‘ZAKI IJDODINI TADQIQ ETISHDA O‘ZBEK KUMULYATIV ERTAKLARINING AHAMIYATI

Xolmurodova Olima Abdivaliyevna

*Jizzax davlat pedagogika universiteti, Xorijiy tillar fakulteti
dotsenti*

ЗНАЧЕНИЕ УЗБЕКСКИХ КУМУЛЯТИВНЫХ СКАЗОК В ИССЛЕДОВАНИИ НАРОДНОГО УСТНОГО ТВОРЧЕСТВА ТЮРКСКИХ НАРОДОВ

Холмуродова Олима Абдивалиевна

*Джизакский государственный педагогический университет,
Доцент факультета иностранных языков*

THE IMPORTANCE OF UZBEK CUMULATIVE TALES IN THE STUDY OF THE FOLKLORE OF TURKIC PEOPLES

Kholmuradova Olima Abdivaliyevna

*Jizzakh State Pedagogical University, Associate Professor,
Faculty of Foreign Languages*

Annotatsiya: Mazkur maqola o‘zbek xalq og‘zaki ijodining muhim qismi bo‘lgan kumulyativ ertaklarni hylistik metodologiya asosida o‘rganishga bag‘ishlangan. Shuningdek, hylistik metodologiya yordamida ertaklarning tuzilishi va semantik xususiyatlari chuqur o‘rganilib, ularning folkloristik ahamiyati baholanadi.

Kalit so‘zlar: turkiz xalqlar, kumulyativ ertaklar, kumulyativ tuzilish, janriy xususiyatlar, o‘zbek kumulyativ ertaklari, hylistik metodologiya, folklor, didaktik xususiyatlar.

Annotation: This article is dedicated to the study of cumulative tales, which are an important part of Uzbek folk oral literature, using a holistic methodology. Additionally, with the help of a holistic methodology, the structure and semantic features of these tales are thoroughly examined, and their folkloristic value is assessed.

Key words: Turkic peoples, cumulative tales, cumulative structure, genre characteristics, Uzbek cumulative tales, holistic methodology, folklore, didactic features.

Аннотация: Данная статья посвящена изучению кумулятивных сказок, которые являются важной частью устного народного творчества узбекского народа, на основе холистической методологии. Кроме того, с помощью холистической методологии глубоко исследуются структура и семантические особенности сказок, а также оценивается их фольклористическая значимость.

Ключевые слова: тюркские народы, кумулятивные сказки, кумулятивная структура, жанровые особенности, узбекские кумулятивные сказки, холистическая методология, фольклор, дидактические особенности.

Kirish. Kumulyativ ertaklar nafaqat o‘zbek, balki dunyo xalqlari ertaklari fondida alohida o‘rin tutadi va insoniyat tongida paydo bo‘lgan mifopoetik tafakkur mahsuli sifatida baholanadi. O‘zbek kumulyativ ertaklari ham asosan hayvonlar haqidagi

ertaklar tarkibida qaralib, baholanib keladi, ularning rang-barang shakllari va poetik qurilmasi tinglovchiyu tadqiqotchilarni o‘ziga rom etadi. Qariyb bir asrga yaqin vaqt oralig‘ida amalga oshirilgan o‘zbek xalq ertaklarining turli-tuman nashrlariga nazar



xolmurodovaolima7@gmail.com
<https://orcid.org/0000-0001-6256-4037>

tashlaydigan bo'lsak, ularning barchasida kumulyativ ertak namunalarini uchramiz. Ammo bu namunalar alohida jamlanib, bir tizimda qaralib chop etilgan emas. Shu sababli biz birinchi galda bu xil ertaklarni ajratib umumiy ro'yxatini keltirishni lozim topdik. Tartib berilayotgan ro'yxatimiz mukammallikka da'vo qilmaydi, lekin ushbu sanoqning o'zi ham kumulyativ ertaklarning umumo'zbek ertaklari fondidagi mavqei salmoqli ekanligini ko'rsatadi, ular haqida kerakli tasavvurni uyg'otadi. O'zbek xalq kumulyativ ertaklarining mavjud nashrlardagi namunalari quyidagilar: "Tuxumboy bilan Buyrakboy", "Qumursqa polvon", "Uch echki", "Susambil", "Bit o'ldi – burga azador bo'ldi", "Bo'z bola", "Oyjamol bilan kal", "Bo'ri bilan mergan", "Chivinboy", "Chu-chu mekunam", "Qo'ng'iz bikach", "Och bo'ri", "Tulki bilan bo'ri", "Tulkiboy", "Qarg'a bilan qo'zi", "Bo'ri bilan mergan", "Bo'ri bilan tulki", "Kampir bilan shaqol", "Jasur chol", "Oltmish og'iz yolg'on", "Noshud bola".

Kumulyativ ertaklarni sirtidan kuzatish davomida ham ularga xos quyidagi xususiyatlarni alohida ajratib sanash mumkin:

- Kumulyativ ertaklar tuzilishining zanjirli ko'rinishga ega ekanligi.
- Ertak qahramonlarining hayvonlar, turli buyum, ashyolar va qisman odamlardan iboratligi.
- Ertak matnida formula shaklini olgan savol-javoblarning muhim o'rin tutishi.
- Matn tarkibida she'riy qismlarning alohida o'ringa egaligi.
- Ertak kompozitsiyasi boshlama, zanjirli tavsif va xotimadan tashkil topishi.
- Majoziylik va ramziylikning ustuvor ko'rinish olishi.
- Shartlilikning asosiy usul sifatida namoyon bo'lishi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. *Matn tarkibida she'riy qismlarning alohida o'ringa egaligi.* Kumulyativ ertaklarning aksariyat qismida qahramonlar dialogida she'riy parchalar keladi. Umuman, o'zbek xalq ertaklarida she'riy parchalar mavjud namunalarning aksariyat

qismi kumulyativ ertaklar hisobiga to'g'ri keladi.

"Qo'ng'iz bikach" ertagida ham personajlar savol-javobi she'riy shaklda berilganligini ko'rishimiz mumkin¹.

Folklorshunos G'.Jalolov ertaklar tarkibida keluvchi qo'shiqlar va ularning ertak syujetidagi vazifasi borasida quyidagi fikrni yozadi: "Qo'shiqlar ertaklar syujetida maqol va topishmoqlar singari hal qiluvchi, voqealarni birlashtiruvchi vazifani o'tamaydi, ularning emotsional xususiyatlarini kuchaytirish, badiiy tasvir kuchini oshirish, xarakterlar orasidagi munosabatlarni dialog (lapar kabi) formasida bayon etish, qahramonlarning lirik holati, kechinmalarini ochib berish uchun qo'llaniladi"².

Olimning fikrini davom ettirib yana aniqlik kiritish kerak bo'ladi. Qo'shiqlarning ertak syujetidagi o'ri ham muhim. Ular faqat qahramon "kechinmalarini ochib berish uchun qo'llaniladi" deb baholash qo'shiqlarning badiiy qimmatini kamaytirish bo'ladi. Ular ertak dramatzimining ortishiga, mazmunning to'liq ifoda topishida, voqealar tafsilotini aniq ifodalashda ham muhim rol o'ynaydi.

O'zbek kumulyativ ertaklarda ko'p uchratish mumkin bo'lgan she'riy parchalar haqida Komiljon Imomov quyidagi fikrni keltiradi: "Ertaklarda lirik ohangni kasb etgan she'riy parchalar obraz ruhiyatini belgilab, voqelikka munosabatini oydinlashtiradi. Asosiy vazifasi e'tiborni tortish va estetik zavq berish vazifasini ado etadi"³, – deb yozadi.

Bugungi kunda bolalar folklori tarkibida bolalar qo'shiq namunasi sifatida qaraluvchi aksariyat zanjirli tuzilishli qo'shiqlarning, aslida, kumulyativ ertaklar tarkibida kelganligini ko'rishimiz mumkin. Lekin vaqtlar o'tishi davomida ertak unutilib, faqat qo'shiqlargina saqlanib qolganligi faktlariga duch kelinadi. Ammo bu qo'shiqlarning boshqa hududlarda saqlangan ertak variantlarining uchrashi fikrimizni tasdiqlaydi. Folklorshunos A.Musaqulov "O'zbek xalq lirikasi" kitobida shunday qo'shiqlardan birini keltirib, bu qo'shiqning tarixiy ildizlari haqida o'z fikrini bayon etadi.

¹ O'zbek xalq ertaklari. Birinchi kitob / Tuzuvchilar: M.Afzalov, X.Rasulov, Z.Husainova. – Toshkent: O'qituvchi, 2007. – B.75.

² Jalolov G'. O'zbek folklorida janrlararo munosabat. – Toshkent: Fan, 1979. – B.133.

³ Imomov K. O'zbek xalq nasri poetikasi. – Toshkent: Fan, 2008. – B.166.

Turkiy xalqlar tarixida ayiq totemi ham juda rivojlangan. Shuningdek, etnografik adabiyotlarda bir totem vakillari dushmanlik maqsadida boshqa guruh totemlarini olganliklari aytiladi.

Olimlar fikricha, qadimda bir urug‘dan tarqalgan turli aymoq vakillari fratriylarga birlashganlar. Bunda bosh urug‘ va unga yaqin urug‘lar totemlari bo‘yicha ham birlashganlar. Shuningdek, urug‘lar birlashmasi bilan boshqa birlashma o‘rtasida doimiy ziddiyat mavjud bo‘lib, **biz** tushunchasi doimo **ularga** qarshi qo‘yilgan. Ana shu jihatlardan qaralsa, qo‘shiqdagi ayiq bosh urug‘ totemi, bo‘ri, tulki fratriy totemlar, qashqir dushman totem ifodasidir”⁴.

Olim bu qo‘shiqning ertak tarkibida kelishidan bexabar bo‘lgan. Yozib oluvchi ham, aytuvchi ham qo‘shiqning ertak sifatida amalda bo‘lganligini bilmagan bo‘lishlari kerak. Aytuvchi ham ertakni unutgan avlod vakili sifatida ertakdan butkul bexabar o‘sgan bo‘lishi mumkin. Ammo ushbu qo‘shiqni folklorshunos Sh.Turdimov Samarqand viloyati Qo‘shrabot tumani To‘ra qishlog‘ida yashagan Vazifa momodan 1985-yili yozib olgan “Tulki” nomli kumulyativ ertak tarkibida to‘liq holda kelishi vaziyatga oydinlik kiritadi.

Muhokama. Kumulyativ ertaklarning vaqtlar o‘tib unutilishi sababli ulardagi qo‘shiqlarning bolalar qo‘shig‘i sifatida saqlanib qolishiga misollar ancha. Shunday misollardan biri “Tulkichak” qo‘shig‘idir. “Tulkichak” qo‘shig‘ining variantlari o‘zbek va qoraqalpoq bolalar folklor namunalari orasida mashhur. Qo‘shiqning bir necha qoraqalpoq variantlari chop etilgan⁵.

“Tulkichak” qo‘shig‘ini “Jovur chol” ertagi tarkibida mukammal ko‘rinishda o‘qiymiz. Ertakni 1948-yili Samarqand viloyati Qo‘shrabot tumanining Qoraksa qishlog‘ida yashovchi qissaxon baxshi Rahmatulla Yusuf o‘g‘li folklor arxiviga (Inv. № 1090) yozib topshirgan, ertak “O‘zbek xalq ertaklari” to‘plamida nashr etilgan⁶. Ertakda

tulkining Jovur cholga o‘g‘il bo‘lishi, barcha yumushlarini bajarishi va tunda uydan chiqib ketayotgan vaqti Jovur chol va tulki o‘rtasida ayni qo‘shiq varianti savol-javob shaklida kelishini ko‘ramiz⁷.

Natijalar. Ertak tarkibidagi qo‘shiq shu bilan yakun topadi. Bu ertak alohida tadqiq etishni talab qiladi va biz muammomiz qamrovidagina fikr yuritdik, xolos. Demak, bugungi kunda bolalar folkloridagi aksariyat zanjirli qo‘shiqlarning u yoki bu jihatdan kumulyativ ertaklar bilan bog‘liqligi alohida o‘rganilishi kerak bo‘lgan masalalar sirasiga kiradi. Umuman, kumulyativ ertaklarning bolalar folklori namunalari tarkibida o‘rganilishi va yosh bolalar nutqining rivojlanishida bu namunalarning misol tariqasida qo‘llanilishi bejiz emas. Chunki ulardagi iboralar, qo‘shiqlar, dialoglar sodda va ohangdorligi bilan bolalar nutqining rivojlanishida, obrazli fikrlash ko‘nikmalarining shakllanib rivojlanishida katta o‘rin tutadi.

Bu o‘rinda folklorshunos V.P.Anikinining: “Bolalarning ona va buvlaridan eshitadigan birinchi ertagi kumulyativ ertaklardir. Bu ertaklardagi zanjirsimon, savol-javobli uslub, bir turdagi epizodlar bolaning diqqatini jalb qiladi va uncha katta bo‘lmagan ertak matnini bolalar tezda eslab qolishadi. Kumulyativ ertaklardan keyingina bola hayvonlar haqidagi ertaklar, sehrli ertaklar va topishmoqlarni bila boshlaydilar”⁸, – deb bildirgan fikri muhim.

Tadqiqotchi T.V.Zueva ham ertaklarda kumulyativ kompozitsiya, ya’ni zanjirli bog‘lanishlar tamoyiliga asoslangan qurilishda bir xil o‘zgarmaydigan motivning har gal yangi yo‘nalish orqali bog‘lanishi ortib borishiga e’tibor qaratadi. Kumulyativ strukturaga ega ertaklar syujeti turli takrorlanish va bog‘lanishlardan iborat bo‘lib, ba’zan savol-javobli, she’riy, matnli tuzilishda bo‘ladi. Bu tur ertaklarning yana bir jihati ularda bog‘lanishlar zanjirni hosil qilishidir deb ko‘rsatadi⁹. Bir so‘z bilan

⁴ Musaqllov A. O‘zbek xalq lirikasi. – Toshkent: Fan, 2010. – B.61.

⁵ *Эмирлан Сейдин Елсүйер улының дала жазыўлары:* 2000-жыл, 3-январь. Информант: Болық Ешполат кызы, 1920-жылы туўылған, миллети: карақалпақ (қытай ~ қайшылы ~ мәжек). Мәнзил: Таўелибай үлкеси, Үшкүдық қаласы, 12 мкр., 26-жай, 9-үй.

⁶ O‘zbek xalq ertaklari. Uchinchi kitob / Tuzuvchilar: M.Afzalov, X.Rasulov, Z.Husainova. – Toshkent: O‘qituvchi, 2007. – B.5-8.

⁷ O‘zbek xalq ertaklari. Uchinchi kitob / Tuzuvchilar: M.Afzalov, X.Rasulov, Z.Husainova. – Toshkent: O‘qituvchi, 2007. – B.7.

⁸ Аникин В.П. Русское устное народное творчество: учеб. – М.: Высш. шк., 2001. – С.558.

⁹ Зуева Т.В. Русский фольклор : учеб. для высш. учеб. зав. 5-е изд. – М.: Флинта, Наука, 2003. – С.82.

aytilsa, kumulyativ ertaklar syujetidagi zanjirda dialoglar va ulardagi she'riy qismning o'zni alohida vazifasiga barcha tadqiqotchilar diqqat qaratishgan.

Kumulyativ ertaklarning semantikasiga bag'ishlangan tadqiqotlar nisbatan kam ekanligini ta'kidlash kerak. Bu borada "Tuxumboy bilan Buyrakboy" ertagi mazmuni haqida "Borsa kelmasdagi xazina"¹⁰ maqolasini ta'kidlash o'rinli. Muallifning: "Tuxumboy bilan Buyrakboy" ertagining timsoliy mazmunni ramziy obrazlar ifodalagan ma'no zanjiridan kelib chiqmoqda. Ya'ni "Bor tiriklik urug'da "buyrak" bo'lib uxlaydi, "ona" botiniga o'tib, quvvat olib unadi, kamol topadi va yana urug'ga qaytdi" deb anglash mumkin. Ushbu mazmun tom ma'noda bilim, xalqona falsafiy xulosadir va undan ertakning boshqa semantik sathlariga chiqish mumkin. Ertak qurulmasidan ruhiy-ma'naviy sathga o'tilsa, insonning kamolot bosqichlari ham urug' – turli holat, kechinmalar, ko'nikma va qoliplar doirasini yorib yangi mazmundagi voqelikka o'tish barobarida so'nggi manzilga yetgungacha davom etishini anglatadi. Bolalar folklori namunalari – og'zaki ijodning eng ko'hna, teran ma'no qatlamlariga ega xazina, ularni shunchaki bolalar qo'shig'i, aytimi, o'yini, ertagi deb qarash tadqiqotchini adashtiradi. Aksincha, ko'plab janrlar ibtidosi, xalqimizning mifologik dunyoqarashlari, tafakkur iqlimlarining javharini ana shu xazinadan topish imkoni mavjud. "Tuxumboy bilan Buyrakboy" ertagi bu holatga yorqin misol", – deb yozishi ertak mohiyatini ochishga xizmat qiladi. Bu xil tadqiqotlarning kumulyativ ertaklarning barcha namunalari asosida yaratilishi har bir xalqning mifopoetik tafakkurini tadqiq etish ikonini beradi.

Shartlilik barcha san'at namunalari, xususan, folklor asarlarini qabul qilish, anglash va talqin etishda muhim o'rin tutadi. Shu sababli barcha kumulyativ ertaklar shartli qabul qilinadi, anglanadi, shartliliksiz bu ertaklar anglamsiz qolishi tayin. Kumulyativ ertaklardagi shartlilik alohida tadqiq etiluvchi muammolarning biri ekanligini alohida ta'kidlash lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbek xalq ertaklari. Birinchi kitob / Tuzuvchilar: M.Afzalov, X.Rasulov, Z.Husainova. – Toshkent: O'qituvchi, 2007. – B.75.
2. Jalolov G'. O'zbek folklorida janrlararo munosabat. – Toshkent: Fan, 1979. – B.133.
3. Imomov K. O'zbek xalq nasri poetikasi. – Toshkent: Fan, 2008. – B.166.
4. Musaqulov A. O'zbek xalq lirikasi. – Toshkent: Fan, 2010. – B.61.
5. Əmiran Seydin Elsyer ulinin dala jazio'lari: 2000-jil, 3-yanvar. Informant: Boliq Eshpolat qizi, 1920-jili tuo'ilg'an, milleti: qaraqalpaq (qitay ~ qayshili ~ mæjek). Mənzil: Tao'elibay ylkəsi, Yshqudiq qalasi, 12 mkr., 26-jay, 9-yy.
6. O'zbek xalq ertaklari. Uchinchi kitob/Tuzuvchilar: M.Afzalov, X.Rasulov, Z.Husainova. – Toshkent: O'qituvchi, 2007. – B.5-8.
7. O'zbek xalq ertaklari. Uchinchi kitob/Tuzuvchilar: M.Afzalov, X.Rasulov, Z.Husainova. – Toshkent: O'qituvchi, 2007. – B.7.
8. Аникин В.П. Русское устное народное творчество: учеб. – М.: Высш. шк., 2001. – С.558.
9. Зуева Т.В. Русский фольклор : учеб. для высш. учеб. зав. 5-е изд. – М.: Флинта, Наука, 2003. – С.
10. Turdimov Sh. Borsa kelmasdagi xazina // Maktabgacha tarbiya. – Toshkent, 2000. – B.46.
11. Xolmurodova, O. (2021). DEVELOPING ENGLISH LANGUAGE SKILLS THROUGH FAIRY TALES . Журнал иностранных языков и лингвистики, 2(4). извлечено от <https://history.jspi.uz/-index.php/fil/article/view/999>
12. Kholmurodova, O. A. (2019). COMPARATIVE ANALYSES OF UZBEK AND ENGLISH CUMULATIVE FAIRY TALES. ANGLISTICUM. Journal of the Association-Institute for English Language and American Studies, 8(10), 59-73. DOI: <http://dx.doi.org/10.0001/ijllis.v8i10.1976>

¹⁰ Turdimov Sh. Borsa kelmasdagi xazina // Maktabgacha tarbiya. – Toshkent, 2000. – B.46.